

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARDA LEKSIK BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI MASALASI

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/UKJM8413

Abror Murtazayev¹

Abstract

Ushbu maqolada o'zbek tilida normativ-huquqiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishda leksik birliklarning qo'llanilishi bilan bog'liq muammolar, ya'ni so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi, uslubiy xatolar, qonunosti hujjatlari matnida qo'llanilgan so'zlarning asosiy qonun hujjatlariga nomuvofiq kelib qolishi, xorijiy tildagi so'zlarning ilmiy asoslarsiz qo'llanilishining oshib ketayotganligi va buning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlilga tortilgan. Normativ-huquqiy hujjatlarning lingvistik ekspertizasida leksik birliklarni to'g'ri qo'llash, uning tushunarli, aniq bir ma'noli, turli talqinlarga sabab bo'lmaydigan darajada bo'lishi muhim. Normativ-huquqiy hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazishda unda qo'llanilgan leksik birliklarni to'g'ri qo'llash uchun, avvalo, yangidan yozilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni yozishda mustaqillikning boshidan shakllanib kelgan qonunchilik bazasiga murojaat qilish eng ma'qul yo'l. Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishda leksik birliklarni unifikatsiya qilish, qonunchilik bazasini elektron platformalarda jamlash va undan unumli foydalanish uchun ham samarali xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *normativ-huquqiy, qonunchilik, unifikatsiya, standart, uyg'unlik, bir xillik, loyiha, lingvistik-ekspertiza.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "*O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida*" gi Farmonida bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va

¹ Murtazayev Abror Odilovich – *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti* Amaliy filologiya kafedrasida katta o'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-manzil: murtazayevabror@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-9089-1390

Iqtibos uchun: Murtazayev, A.O. 2023. "*Normativ-huquqiy hujjatlarda leksik birliklarning qo'llanilishi masalasi*". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5):37-50. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/UKJM8413.

rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi zarur va tabiiy hodisa ekanligi ta'kidlanib, qator vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu Farmonning uchinchi bandida Davlat tilini rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari sifatida:

“Davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish;

ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarining o'zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanishini ta'minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish” belgilangan [<https://lex.uz/docs/-4561730>]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Atamalar Komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 40-son Qaroriga ko'ra, *“ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalaridagi tushuncha va atamalarining turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlash”* kabilar komissiyaning asosiy vazifalari sifatida belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirining 2012-yil 9-aprelda 2352 raqami bilan ro'yxatga olingan *“Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida uslubiy ko'rsatmalarni tasdiqlash haqida”* buyrug'ining Qonunosti hujjatlari loyihalarining matni va tuzilmasiga bo'lgan umumiy talablar deb atalgan V bobida:

“20. Loyihada quyidagilarning qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi: og'zaki nutq shakllari;

xorijiy tillarning atamalari, davlat tilida teng ma'noli so'zlar va tushunchalar bo'lgan taqdirda;

eskirgan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar;

abbreviatura va qisqartmalar (umumiy qabul qilingan abbreviatura va qisqartmalar, shuningdek qonunosti hujjatlarining ilovalaridagi tashkilotlarning qisqartirilgan nomlari bundan mustasno).

21. Loyihada qonunchilikda mavjud bo'lmagan tushuncha va atamalar, shuningdek texnikaviy va boshqa maxsus atamalardan

foydalanilganda, ularning ta'rifi beriladi. Qonunchilik amaliyotiga muvofiq umumqo'llaniladigan tushunchalarga ta'rif berish talab etilmaydi.

22. Tushuncha yoki atamaning ta'rifi uning mazmunini to'liq ochib berishi kerak. Tushuncha yoki atamani aynan shu tushuncha yoki atama bilan, shuningdek o'zlari ta'riflanishga muhtoj bo'lgan boshqa tushuncha va atamalar orqali ta'riflashga yo'l qo'yilmaydi" deb davlat tilida qanday foydalanish mumkin ekanligi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan [<https://lex.uz/docs/-1999242>].

ASOSIY QISIM

Huquqiy normalar ijtimoiy tartibga solish tizimida yetakchi o'rinni egallaydi va ularni ifodalashning asosiy manbalari normativ-huquqiy hujjatlardir. Shu munosabat bilan qonun ijodkorligi faoliyati alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning samarali amalga oshirilishini lingvistik vositalardan to'g'ri foydalanmasdan tasavvur etib bo'lmaydi.

Zero, aynan til asosiy element bo'lib, uning yordamida qonun ijodkorligi subyektining irodasi tashqarida ifodalanadi va barcha manfaatdor tomonlarga yetkaziladi.

A.A.Ushakovning so'zlariga ko'ra, «so'zning noto'g'riligi, fikr va so'z, qonun chiqaruvchi va o'quvchi o'rtasidagi tafovut, ba'zida huquq sohasidagi kabi og'ir oqibatlarga olib keladigan ijtimoiy hayotning boshqa sohasini nomlash qiyin» [Ushakov 1967, 80]. Albatta, yuridik til, I.Sabo ta'kidlaganidek, "oddiy tildan boshqa narsa emas, maxsus iboralar, texnik atamalar bilan to'ldiriladi, ya'ni kundalik hayotda uchraydigan iboralarni aniqroq ishlatadigan tildir. Biroq, qonuniy til «hali ham uni maxsus toifaga ajratadigan bir qator semantik, stilistik va boshqa xususiyatlarni o'z ichiga oladi» [Sabo 1964, 245]. Aynan shu holat ushbu toifaga alohida e'tibor berish zarurligini oldindan belgilab beradi.

Huquq tili huquqiy fikrni eng to'g'ri va ixcham ifodalash uchun mo'ljallangan yetarlicha ishlab chiqilgan atamalar tizimining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ular orasida huquqiy normalarning yetakchi manbalari bo'lgan va ijtimoiy munosabatlarning mutlaq ko'p qismini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda qo'llaniladigan atamalar alohida ahamiyatga ega. Ayni paytda mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlar tizimi hozirgi bosqichda qator kamchiliklar, jumladan, terminologik kamchiliklar bilan ajralib turadi.

Shu munosabat bilan ta'kidlanganidek, "Yagona huquqiy makonni ta'minlash uchun qonun ijodkorligi jarayonida

qo'llaniladigan atamalarni unifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega".

Rivojlangan davlat qonunchilik hujjatlaridagi asosiy tushunchalar va ular o'rtasida tafovutlar bo'lishi mumkin emas. Normativ-huquqiy hujjatlar terminologiyasini unifikatsiya qilish zarurligi haqida o'zbek tilshunosligida alohida monografik tadqiqotlar mavjud bo'lmasa-da, qator nazariy tadqiqotlarda ham ta'kidlab o'tilgan.

Normativ-huquqiy terminologiyani unifikatsiya qilish tushunchasini o'rganishga kirishishdan oldin terminologiya va yuridik terminologiyani unifikatsiyasi tushunchalariga murojaat qilish zarur ko'rinadi. «Unifikatsiya» atamasi lotincha «unus» - «bitta», «faqat» va «facio» - «yasamoq», «ishlab chiqarish» so'zlaridan kelib chiqqan. Lug'atlarda quyidagi ta'riflarni ko'rishimiz mumkin.

“UNIFIKATSIYA [lot. uni, unus – bir + facere – qilmoq]: unifikatsiya qilmoq Yagona tizimga, shaklga, bir xillikka keltirmoq; uyg'unlashtirmoq. Mashina detallarini unifikatsiya qilmoq. Alifboni unifikatsiya qilmoq.

UNIFIKATSIYALASHTIRMOQ ayn. unifikatsiya qilmoq q. unifikatsiya. Ilmiy terminologiyani unifikatsiyalashtirmoq” [O'zbek tilining izohli lug'ati 2020, 290].

Ushbu turkumning umumiy ta'riflari: «bir narsani yagona tizim ostiga olib kelish, uni bir xillikka keltirish»; «bir xillikka, yagona me'yorga, yagona shaklga keltirish»; «biror narsani yagona tizimga, shaklga, bir xillikka olib kelish» .

Ilmiy adabiyotlarda terminologiyani unifikatsiyasini tushunish masalasida quyidagi yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. A.V.Krijanovskayaning so'zlariga ko'ra “Ilmiy birlashtirish terminologiyani adabiy tizimga kiritishni o'z ichiga oladi, atamalarning stilistik xususiyatini alohida voqelik belgilari sifatida hisobga oladi, bu atamani bir-biridan ajratib turadigan muhim xususiyatlarga ega. [Krijanovskaya 1985, 3]

Shu bilan birga, terminning o'ziga xos xususiyatlari umuman so'zning umumiy til xususiyatlari bilan bog'liq emas, balki so'z atamasining ilmiy funksional uslubning muayyan me'yorlariga mos kelishi bilan bog'liq holda birinchi o'ringa chiqadi.

“A.A.Reformatskiy «Har qanday terminologiyani birlashtirish, eng avvalo, so'zni oqilona tashkil etishdir» deb hisoblagan va shuningdek, «tarmoqli terminologiyani birlashtirish bo'yicha ishlar quyidagi masalalardan iborat:

1) rejalashtirilgan qurilish mezonlari yagona sanoat termi-

nologiyasi;

2) standart atamasi asosida sinonimlarni tanlash va unifikatsiya qilish;

3) omonimlarning aniqlanishi;

4) mavjud atamalar va omonimlarning aniqlanishini tekshirishda rad etish natijasida aniqlangan bo'shliqlarni yo'q qilish hisobiga terminologiyani to'ldirish" deb yozgan [Reformatskiy 1986, 191].

E.V. Karpinskaya terminologiyani birlashtirish atamalarini bir xillikka, yagona shakl yoki tizimga olib kelish bilan bog'liq, deb hisoblaydi hamda tushunchalar tizimi va atama tizimi o'rtasidagi aniq muvofiqlikni ta'minlash uchun mo'ljallangan uch darajada amalga oshiriladi: mantiqiy, mazmunli va lingvistik deb keltiradi. [Karpinskaya 2003, 208]

K.Y.Averbux o'z tadqiqotida so'nggi paytlarda o'z-o'zidan paydo bo'lgan terminologiyalarni oqilona maqsadli tartibga solishga urinishlar terminologiyani birlashtirish ekanligini, shuningdek, bunday faoliyatni terminologik belgilash bo'yicha mutaxassislar o'rtasida birlik yo'qligini ta'kidlaydi. [Averbux 2005, 61]

V.P.Danilenko va L.I.Skvortsovaning ta'kidlashicha, terminologiyani birlashtirish «tarmoq terminologiyasini barcha zarur darajadagi (mazmunli, mantiqiy va lingvistik) tizimga kiritish uchun murakkab va ko'p qirrali ishdir» [Danilenko 1981, 9].

Huquq sohasida huquqiy terminologiyaning unifikatsiyasiga turlicha ta'riflar berilgan. Hozirgi vaqtda ushbu toifani tushunishning quyidagi asosiy yondashuvlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yondashuvga muvofiq, unifikatsiya huquqiy terminologiyani takomillashtirish texnikasi, vositalari va qoidalari bilan belgilanadi. I.N.Senyakin huquqiy atamalarini birlashtirishni "mavjud atamalarining terminologik birligi va izchilligini ta'minlaydigan texnikalar, qoidalar va vositalar to'plami" deb tushunadi. [Senyakin 1993, 93]

Bunday yondashuvning kamchiligi shundaki, unda terminologiyani takomillashtirishning barcha usullari, vositalari va qoidalarini amaliyotda qo'llashda subyektlar faoliyatining ahamiyati e'tiborga olinmaydi.

E.A.Pryanishnikov, I.F.Kazmin, E.F.Smorgunovalar huquqiy atamalarining unifikatsiyasi "huquqiy terminologiyaning birligiga, uning bir ma'noliligiga, keraksiz sinonimiya, qarama-qarshilik va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan usul va vositalarning butun majmui, barcha faoliyatdir" [Kazmin 1990,

133] degan yondashuvdalar, ya'ni ma'no va imlo jihatidan bir deb baholash. Yuridik fanda yuridik terminologiyani ikki jihat: keng va tor jihatdan birlashtirish tushunchasi ham mavjud. T.N.Raxmanina huquqiy terminologiyani birlashtirish ostida birinchi jihatda qonun hujjatlari tiliga qo'yiladigan talablardan birini tushunadi, bu esa foydalanishning birligidan iborat.

Ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlardagi terminologiya (tor ma'noda), atamashunoslikni takomillashtirishning ma'lum bir yo'nalishi bilan bog'liq.

S.K.Magomedov dissertatsiya tadqiqotida normativ-huquqiy terminologiyaning unifikatsiyasini belgilaydi [Magomedov 2004, 68]. U normativ-huquqiy terminologiyani birlashtirishni ikki jihatda ko'rib chiqadi. Birinchi jihat, uning fikricha, ushbu hodisani kengroq tushunishni o'z ichiga oladi va qonun ijodkorligi jarayonida qonunchilik texnikasi va vositalarining barcha majmuini o'z ichiga olgan norma ijodkorligi vakolatiga ega bo'lgan organlarning faoliyatidir. Muayyan terminologik tizim doirasida atamalarning ma'no jihatdan bir ma'noliligiga erishish, uning ortiqcha sinonimiyasiga, qonun normalarini shakllantirishdagi mantiqiy qarama-qarshiliklarga barham berish, atamalardan bir xil va oqilona foydalanish, norma ijodkorligi faoliyatining barcha sohalarida bir xil funksional maqsad deb qaraladi.

Bizning fikrimizcha, normativ-huquqiy atamalarni unifikatsiya qilish atamashunoslik ishining yo'nalishlaridan biri, normativ-huquqiy atamalarni yagona tizimga keltirishga qaratilgan vakolatli subyektlar faoliyati, barcha metodlar va usullardan foydalangan holda bir xillik sifatida dinamik jihatdan ko'rib chiqilishi kerak. Atamalarning barcha me'yorlarga mos kelishini ta'minlovchi huquqiy texnika vositalari uch darajada taqdim etiladi: mantiqiy, lingvistik va mazmuniy.

Bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlarda terminologik jihatdan turlichalik, bir tushunchani turli sinonimlar bilan yoki tilimizda muqobili bo'lgani holda boshqa tildagi tarjimalarini qo'llash bilan bog'liq holatlar bir qadar ko'paygan. Bunga "tamg'alash" so'zi bo'lgani holda rus tilidagi markirovka so'zini qo'llanilib kelayotganligini misol qilishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 12-iyuldagi *"Qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarning asillik darajasini belgilash va **tamg'alash** bilan bog'liq yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirganlik uchun asillik darajasi to'lovini undirish tartibini yanada takomillashtirish*

chora-tadbirlari to'g'risida”gi 490-son hamda 2017-yil 12-oktabrdagi “Qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarning asillik darajasini belgilash va **tamg'alash** bilan bog'liq yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirganlik uchun asillik darajasi to'lovini undirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 819-son qarorlarida “**tamg'alash**” qarorlarida termin sifatida qo'llanilgan. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2018-yil 30-oktabrdagi “*Dorixona sharoitida «angro» mahsulotini qadoqlash, o'rash, **markirovka** va realizatsiya qilish tartibi to'g'risida*gini zomni tasdiqlash haqida”gi 51-son buyrug'i, O'zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat Bojxona qo'mitasining “*Davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan iste'mol tovarlarini markalash va bojxonada rasmiylashtirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida*»gi qaror, shuningdek, unga o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida ((O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 27-son, 354-modda) [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 1-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1202-2]) hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-fevraldagi “*Import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish va bojxonada rasmiylashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida*”gi 22-son qarorida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini kengaytirish bo'yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 322-son qarorida “**markirovka**” tarzida qo'llangan. Qonunchilik tilida bunday nomuvofiqliklarning sababi nima deyilsa, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlovchi tashabbuskorlarning bu borada muayyan tamoyillarga amal qilmasligi, bu sohani doimiy nazorat qiluvchi tashkilotning yo'q ekanligi, shuningdek, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash bo'yicha qat'iy nizom, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini o'tkazuvchi lingvist ekspertlarning yo'q ekanligi normativ-huquqiy hujjat darajasidagi metodik qo'llanma yo'qligi va bunday hollarda davlat tili haqidagi qonun hujjatlariga amal qilishning doimiy va qat'iy monitoringining yo'lga qo'yilmaganligi kabilarni aytib o'tishimiz mumkin.

Yurtimizda normativ-huquqiy hujjatlarda so'z qo'llash, terminologik bazadagi standartning yo'q ekanligiga eng katta sabablardan biri sifatida normativ-huquqiy hujjat tayyorlovchi

tashabbuskorlarning yaxshigina shakllanib ulgurgan qonunchilik bazasidagi mavjud, amaldagi termin, qoliplardan foydalanishga e'tibor qilmaslik, qonun osti hujjatlar matnini tayyorlashda qonun hujjatlariga moslash emas, balki qonun hujjatlari tilini, undagi tushuncha va terminlarni, qoliplarni qonun osti hujjatiga bo'ysundirish holatining faol ekanligi bilan izohlash mumkin.

Normativ-huquqiy terminologiyani birlashtirish muhim va bunda quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Bu atamalarni ularga qo'yiladigan normativ talablarga muvofiqlashtirish bo'yicha faol faoliyatdir, chunki me'yoriy-huquqiy terminologiyani birlashtirish vakolatli subyektlar tomonidan muayyan harakatlarni talab qiladi.

2. Turli sohalar, birinchi navbatda, huquqshunoslik, tilshunoslik, mantiq, falsafa va boshqalarga oid muhim bilimlar majmuini birlashtirish jarayonida o'zlashtirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq intellektual xususiyat.

3. Tashkiliy va imperativ xususiyat, ya'ni terminologiyani birlashtirish jarayonining ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish va samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'nalishi, muayyan vakolatlarga ega bo'lgan subyektlarning normativ-huquqiy terminologiyasini unifikatsiya qilish jarayonida ishtirok etish.

4. Irodaviy xususiyat, ya'ni me'yoriy-huquqiy terminologiyani birlashtirish jarayonida butun jamiyat yoki uning ko'pchiligi manfaatlari va ehtiyojlarining so'zlovchisi bo'lishi kerak bo'lgan birlashma subyektlari irodasining ifodalanishi.

5. Ijtimoiy shartlilik, bu bir butun yoki alohida huquq tarmoqlari sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi butun tizimining normativ-huquqiy terminologiyasini birlashtirish uchun obyektiv mavjud ijtimoiy, guruh va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olishni o'z ichiga oladi.

6. Quyidagi elementlarni o'z ichiga olgan ma'lum bir strukturaning mavjudligi: subyektlar, obyekt, mazmun.

Normativ-huquqiy hujjatlarda atama bo'lgan so'z va iboralar bilan bir qatorda ko'p qo'llaniladigan so'z va iboralar, maxsus atamalar ham mavjud. Yuridik atamalar bilan bunday bo'lmagan so'z va iboralarni farqlash masalasida ilmiy adabiyotlarda turli yondashuv va tavsiyalar mavjud. Masalan, yuridik atamalar yuridik matnda uchraydigan barcha so'zlarni o'z ichiga oladi. Ko'pgina advokatlar bu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. P.I.Lyublinskiy kundalik, texnik (shu jumladan huquqiy) va sun'iy atamalarning turlarini ajratib ko'rsatdi. [Fomina 2006, 21]

Hozirgi vaqtda yuridik fanda yuridik atamalarni umumiy qo'llaniladigan (umumiy qabul qilingan, ma'lum ma'nodagi atamalar), maxsus texnik (maxsus bilimlar sohasida qabul qilingan ma'noga ega – texnologiya, tibbiyot, biologiya) va maxsus huquqiy (maxsus huquqiy ma'noga ega, muayyan huquqiy tushunchaning o'ziga xosligini ifodalovchi) terminlari bor. Oxirgi guruh umumiy tildan o'zlashtirilgan, lekin qonun hujjatlarida avvalgisidan farqli boshqa ma'no kasb etgan atamalar (shikoyat, iltimosnoma) va faqat qonun hujjatlariga xos bo'lgan atamalar (tanish, huquq layoqati)ga bo'linadi.

Shuningdek, yuridik adabiyotlarda huquqiy atamalarning umumiy qo'llaniladigan atamalarga (kundalik nutqda, badiiy va ilmiy adabiyotlarda, ish hujjatlari va qonun hujjatlarida bir xilda qo'llaniladigan narsa, sifat, belgilar, harakatlar, hodisalarning odatiy, keng tarqalgan nomlari) tasnifi keng tarqalgan.

Normativ-huquqiy hujjatda torroq, maxsus ma'noga ega bo'lgan umumiy qo'llaniladigan atamalar; maxsus texnik atamalar (maxsus bilimlar sohasida qabul qilingan ma'noga ega – texnologiya, tibbiyot, biologiya) va maxsus huquqiy atamalar (maxsus huquqiy ma'noga ega, muayyan huquqiy tushunchaning o'ziga xosligini ifodalovchi) kabilar qo'llaniladi.

“Bu tasnifning o'zgarishi huquqiy atamalarni 4 guruhga bo'lishdan iborat:

“1) odatdagi adabiy mazmunini o'zgartirmagan holda, huquqiy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan kundalik so'zlar va kundalik nutq so'zlari;

2) yuristlar alohida ma'no beradigan keng tarqalgan so'zlar va iboralar;

3) huquqshunoslikka maxsus terminologiya (tibbiyot, sotsiologiya va boshqalar) bilan faoliyat yurituvchi sohalardan kirib kelgan kasbiy tushunchalar va atamalar;

4) tegishli huquqiy tushunchalar va atamalar” [Oskamitniy 2004, 63-64].

Ikkinchi yondashuv vakillari bunday yondashuv atamaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun yetarlicha qat'iy va bir xil emas deb hisoblaydilar va aniqlik kiritilishi kerak” [Fomina 2006, 26]. Bu fikrga tilshunos olimlar ham qo'shiladilar.

S.P.Xijnyak fikriga ko'ra «Haqiqat, ehtimol, lingvistik va to'g'ri huquqiy yondashuvlarning uyg'unligidadir. Kasbiy bilim vakillarining atama ta'rifiga munosabatini hisobga olish ham eng zarur masala ekanligini, ya'ni normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqshunos

bilan lingvistning ishtiroki bilan cheklab bo'lmaydi" [Xijnyak 1997, 9].

Normativ-huquqiy hujjat matnida umumiy ma'noda qo'llanilgan so'zlarni atama deb atamaslik kerak, deb hisoblaymiz, chunki "termin" atamasining ma'nosi haligacha umumiy adabiy tilga nisbatan ma'lum o'ziga xosliklarning mavjudligini bildiradi, shuning uchun umumiy so'zni atama sifatida qo'llash normativ-huquqiy hujjatda uning alohida ma'nosini anglatishi kerak.

Yuridik tildagi maxsus texnik (ixtisoslashtirilgan) atamalarga engoqilonayondashuv sifatida I.F.Kazminning qonunchilik sohasidagi huquqiy terminologiyaga tegishli yuridik va ixtisoslashganlarga bo'linishini ta'kidlashidir. "Ixtisoslashgan atamalar, o'z navbatida, ikki guruhga bo'linadi:

1) qonuniy kuchga kirmagan shartlar;

2) asosiy ma'nosini yo'qotmagan holda, qonuniy bo'lmagan atamalar." [Fomina 2006, 68]

Normativ-huquqiy hujjatlar matnidagi ixtisoslashgan atamalarni transtermlar deb ataladigan (lotincha: trans - "orqali, ustidan, orqasida"), ya'ni transterminologizatsiya (ko'chirish) natijasida paydo bo'lgan normativ-huquqiy atamalardan farqlash kerak. Bitta terminologiyadan olingan atama semantik tuzilishidagi turli o'zgarishlar bilan birga boshqasiga aylanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlardagi transtermlar va ixtisoslashtirilgan atamalar o'rtasidagi farq, ular ma'lum bir maxsus sohada qanday ma'noda qo'llanilsa, ular bir xil ma'noda qo'llaniladi, bu ular ma'nosining yuridik tilga o'zgarishi deb baholashni anglatadi.

Transtermlar va ixtisoslashtirilgan atamalar o'rtasidagi farq shundaki, ular o'zlarining asosiy, huquqiy bo'lmagan funksiyalarini yo'qotmasdan, bir vaqtning o'zida (ushbu akt kontekstida) qandaydir huquqiy ma'noga ega bo'ladilar, ikkinchi holda, atama ma'nosining o'zgarishi yuzaga kelmaydi va u normativ-huquqiy hujjatda ham, boshqa sohada ham shu ma'noda qo'llanadi.

Bizning fikrimizcha, normativ-huquqiy hujjatlardagi transtermlar, yuqoridagi tasnifga muvofiq, maxsus huquqiy terminologiyaga taalluqli bo'lishi kerak, chunki "insonning ilmiy va amaliy faoliyatining turli sohalaridan yurisprudensiyaga o'tgan atamalar nafaqat qonunchilikda huquqiy xususiyat kasb etadi, balki tegishli huquqiy atamalarni shakllantirishda ham ishtirok etadi.

Normativ-huquqiy atamalarga quyidagilar kiradi: me'yoriy-huquqiy hujjatlarda atama sifatida qo'llaniladigan va alohida ma'noga ega bo'lgan keng tarqalgan so'zlar, maxsus huquqiy

atamalar (qobiliyat, muomala layoqati, da'vogar va boshqalar), ixtisoslashgan atamalar. Ushbu tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qo'llaniladigan barcha atamalar unifikatsiya obyekti sifatida emas, balki faqat me'yoriy-huquqiy hujjatlarda atama sifatida qo'llaniladigan va alohida ma'noga ega bo'lgan, ko'p qo'llaniladigan, maxsus ma'noga ega bo'lgan so'zlarga ko'rib chiqiladi.

Normativ-huquqiy terminologiyani unifikatsiya qilish belgilarini aniqlab, biz normativ-huquqiy atamalarni unifikatsiya qilish ancha murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uni bir qancha bosqichlarda amalga oshirish mumkin ekanligiga e'tibor qaratishni zarur deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, normativ-huquqiy atamalarni unifikatsiya qilish ishlariga huquq sohasi mutaxassislari, tilshunoslar, psixologlar, mantiqshunoslar jalb etilishi lozimligini yodda tutish lozim.

Yuridik adabiyotlarda terminologiyani birlashtirishning quyidagi bosqichlari ajratiladi.

V.Y. Turanin normativ-huquqiy terminologiyani birlashtirish bo'yicha ishlar ikki bosqichga bo'linadi, deb hisoblaydi: tayyorgarlik va asosiy. Uning yozishicha, birinchi bosqichda unifikatsiya qilish uchun atamalarning aniq tarmog'ini ishlab chiqish zarur. Ikkinchi bosqichda, esa ma'lum bir tushunchaning nomlarini aniqlashtirish va birlashtirish orqali quyidagilar zarur: ushbu tushunchani bildiruvchi barcha nomlar-sinonimlarni hisobga olish; zamonaviy tilda ishlatilmaydigan eskirgan so'zlarni ajratish; muayyan tilning stilistik me'yorlariga mos kelmaydigan nomlarni ajratish; qolgan atamalarni urf-odat, ulardan foydalanish ushbu masala o'rganilayotgan tilda barqarorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish. Keyin tegishli huquqiy tushunchaning asosiy nomini tanlashingiz kerak, u standart sifatida tizimlashtirilgan, umume'tirof etilgan va yuridik tilda foydalanish uchun majburiy bo'lishi kerak [Turanin 2005, 46].

E.A.Kryukova maxsus atamalarni birlashtirishning uch bosqichini belgilaydi. Birinchi bosqichda olib borilayotgan ishlarning maqsadi – sohaga oid atamalarni aniqlash, ularning ma'nolarini oydinlashtirish, ularni (huquqiy normalar mazmuniga ziyon yetkazmagan holda) neytral lug'at bilan almashtirish (yuridik atamalar almashtirilmaydi). Ikkinchi bosqich o'z ichiga oladi unifikatsiyalangan atamalarning to'liq shakli va ularning qisqartirilgan variantlari yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan to'g'ri unifikatsiya. Uchinchi bosqich – nazorat. Keyinchalik E.A.Kryukovanning ta'kidlashicha, ko'pincha birinchi va ikkinchi bosqichlarda yoki ikkinchi va uchinchi bosqichlarda birlashtiruvchi

harakatlar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Juda qisqa vaqt ichida birlashtirishning barcha uch bosqichi birlashtiriladi, bu, qoida tariqasida, qonunchilik aktining sifatiga salbiy ta'sir qiladi deb qaraladi [Kryukova 2003, 50].

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz normativ-huquqiy terminologiyani birlashtirishning uchta bosqichini ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: dastlabki, asosiy va keyingi.

Dastlabki bosqichda kelgusi ishlarning hajmi aniqlanadi, ya'ni unifikatsiya qilinadigan atamalar to'plami amalga oshiriladi. Aynan shu bosqichda tegishli sohaning barcha shartlari hisobga olinishi kerak, shunda atama bilan belgilanmagan yagona huquqiy tushuncha mavjud emas. Ushbu bosqichda yurtimizdagi qonunchilik hujjatlarida u yoki bu atama ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar mavjudligi sababli sezilarli qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Unifikatsiya qilinadigan atamalarni yig'ishda huquqiy tartibga solishning ushbu sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar terminologiyasidagi kamchiliklar bilan bog'liq muammolar doirasi-ni aniqlash uchun huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda normativ-huquqiy terminologiyani unifikatsiya qilishni amalga oshirishda atamashunoslikdagi kamchiliklar tufayli huquqni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan barcha qiyinchiliklarni real baholash juda qiyin.

Xuddi shu birlashtirish bosqichida ushbu atamalar qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qo'llanilganligini aniqlash, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, ular mavjud bo'lmaganda esa sud hujjatlarida mavjud atamalarning barcha ta'riflarini aniqlash kerak. Keyin ma'lum bir me'yoriy-huquqiy hujjatda qo'llaniladigan atamalarni tanlash va ularning ma'nosini oldindan aniqlash kerak.

XULOSA

Hozirgi vaqtda umumiy atamashunoslikni, xususan, normativ-huquqiy terminologiyani takomillashtirish sohasida yagona terminologik apparat mavjud emas. Ilmiy adabiyotlarda atamalarni, jumladan, normativ-huquqiy atamalarni ma'lum tartibli to'plamga kiritish zaruriyati bilan bog'liq tushunchalarga murojaat qilish uchun turli atamalar qo'llaniladi: unifikatsiya, tartiblash, standartlashtirish, uyg'unlashtirish, integratsiyalashuv va boshqalar.

Normativ-huquqiy hujjat loyihalarida so'zlarni qo'llashda

avvalo, shu kunga qadar shakllangan qonunchilik bazasiga murojaat qilishi orqali tartibga solish mumkin va bunda mavjud tartib-qoidalarga zid ravishda yozilgan normativ-huquqiy hujjatlarni inventarizatsiyadan o'tkazib, leksik birliklarni qo'llash bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etishdan keyingina qoniqarli natija berishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmaslik talab etiladi.

Adabiyotlar

- Казьмин, И.Ф., Прянишников, Е.А., Сморгунова, Е.М. 1990. Унификация и стандартизация юридических терминов //Язык закона / Под ред. А.С. Пиголкина. – М.: Юрид. лит.
- Магомедов, С.К. 2004. Унификация терминологии нормативных правовых актов Российской Федерации: Дис.... канд. юрид. наук. –М.
- Фомина, Л.Ю. 2006. Унификация нормативной правовой терминологии. Дисс... кан. юр. наук. Саранск.
- Оскамытный, В.В. 2004. Теория государства и права: Учеб. для вузов. - М.: Изд-во «ИМПЭ-ПАБЛИШ»
- Хижняк, С.П. 1997. Юридическая терминология: формирование и состав / Под ред. Л.И. Баранниковой. - Саратов: Изд-во Саратов. ун-та
- Туранин, В.Ю. 2005. Транстерминологизация - новая проблема юридического языка // Право и политика.
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. V jildli. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 4-jild.

THE ISSUE OF THE USE OF LEXICAL UNITS IN NORMATIVE LEGAL DOCUMENTS

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/UKJM8413

Abror Murtazaev¹

Abstract

In this article, problems related to the use of lexical units in the linguistic examination of normative legal documents in the Uzbek language, that is, methodological errors in the use of words, incorrect use of words, the words used in the text of the legal documents are incompatible with the main legal documents, the prevention of the use of foreign language words without scientific basis is increasing, and the theoretical and practical aspects of this are analyzed. In order to apply lexical units correctly, it is the most optimal way to refer to the legal framework that has been formed since the beginning of independence when writing newly written normative legal documents. It also serves effectively for the unification of lexical units during the linguistic examination of normative-legal document drafts, as well as for the compilation of the legal base on electronic platforms and its effective use.

Keywords: *normative-legal, legislation, unification, standard, harmony, uniformity, project, linguistic-expertise.*

References

- Kazmin, I.F., Pryanishnikov, Y.A., Smorgunova, Y.M. 1990. *Unifikatsiya i standartizatsiya yuridicheskix terminov* //Yazik zakona / Pod red. A.S. Pigolkina. – M.: Yurid. lit.
- Magomedov, S.K. 2004. *Unifikatsiya terminologii normativnix pravovix aktov Rossiyskoy Federatsii*: Dis.... kand. yurid. nauk. –M.
- Fomina, L.Y. 2006. *Unifikatsiya normativnoy pravovoy terminologii*. Diss... kan. yur. nauk. Saransk.
- Oskamitniy, V.V. 2004. *Teoriya gosudarstva i prava*: Ucheb. dlya vuzov. - M.: Izd-vo «IMPE-PABLISH»
- Xijnyak, S.P. 1997. *Yuridicheskaya terminologiya: formirovanie i sostav* / Pod red. L.I. Barannikovoy. - Saratov: Izd-vo Saratov. un-ta
- Turanin, V.Y. 2005. *Transterminologizatsiya – novaya problema yuridicheskogo yazika* // Pravo i politika.
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. V jildli. 2007. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 4-jild.

¹Murtazaev Abror Odilovich – Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Senior Lecturer, Department of Applied Philology, Doctor of Philology (PhD)

E-mail: murtazayevabrор@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-9089-1390

For reference: Murtazaev, A.O. 2023. "The issue of the use of lexical units in normative legal documents". Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5): 37-50. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/UKJM8413.